



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiye Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	



YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

Ismailov Bobir Salomovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi, PhD.

ORCID: 0009-0006-9783-6614

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashiriniqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida blokcheyn, sun'iy intellekt va "Big Data" texnologiyalarining soliq ma'murchiligi hamda moliyaviy tranzaksiyalar shaffofligini ta'minlashdagi imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida raqamli ekotizimni rivojlantirish orqali yashirin aylanmalarni qonuniy sektorga o'tkazish bo'yicha ilmiy yondashuvlar umumlashtirilgan. Maqola yakunida milliy iqtisodiyotda raqamli transformatsiyani jadallashtirish orqali yashirinfaoliyatni minimallashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yashiriniqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, blokcheyn, soliq ma'murchiligi, shaffoflik, raqamli platformalar, sun'iy intellekt, moliyaviy nazorat.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the role and significance of digital technologies in reducing the scale of the shadow economy. The study examines the potential of blockchain, artificial intelligence, and Big Data technologies in ensuring transparency in tax administration and financial transactions. Furthermore, based on international experience, scientific approaches to transferring hidden economic activities into the formal sector through the development of a digital ecosystem are summarized. The article concludes with proposals and recommendations aimed at minimizing shadow economic activities by accelerating digital transformation in the national economy.

Key words: shadow economy, digital technologies, blockchain, tax administration, transparency, digital platforms, artificial intelligence, financial control.

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения проанализирована роль и значение цифровых технологий в сокращении масштабов теневой экономики. В ходе исследования рассмотрены возможности технологий блокчейн, искусственного интеллекта и Big Data в обеспечении прозрачности налогового администрирования и финансовых транзакций. Также на основе международного опыта обобщены научные подходы к переводу скрытых оборотов в легальный сектор посредством развития цифровой экосистемы. В заключении статьи представлены предложения и рекомендации, направленные на минимизацию теневой деятельности путем ускорения цифровой трансформации национальной экономики.

Ключевые слова: теневая экономика, цифровые технологии, блокчейн, налоговое администрирование, прозрачность, цифровые платформы, искусственный интеллект, финансовый контроль.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichida yashiriniqtisodiyot barcha mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham barqaror iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Yashiriniqtisodiyot nafaqat davlat budjetiga tushumlarning kamayishiga, balki bozor raqobatining buzilishiga hamda ijtimoiy tengsizlikning ortishiga olib keladi.

So'nggi yillarda "raqamli iqtisodiyot" tushunchasining hayotimizga chuqur kirib kelishi yashirinfaoliyatni qisqartirish bo'yicha mutlaqo yangi va samarali instrumentlarni taqdim etdi. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy jarayonlarning izlanuvchanligini (traceability) oshiradi, inson omilini kamaytiradi va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.



Hozirgi kunda iqtisodiyotni raqamlashtirish, soliq ma'murchiligini takomillashtirish hamda riskka asoslangan nazorat tizimlarini joriy etish soliq nazoratining mazmuni va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois, soliq to'lovchilar faoliyati ustidan soliq nazoratini amalga oshirishning nazariy asoslarini o'rganish orqali mazkur jarayonning mohiyati, vazifalari va iqtisodiy ahamiyatini ochib berish, shuningdek, uning samaradorligini oshirish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq nazorati orqali tartibga solish masalalari iqtisodiy nazariya, moliya va soliq huquqi sohalarida keng o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq nazoratining mohiyati, shakllari va usullariga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar mavjud.

Xorijiy olimlardan J. Stiglits, R. Masgreyv va P. Samuelsonlar soliq nazoratini davlat moliyaviy mexanizmining ajralmas qismi sifatida talqin qilib, uning asosiy vazifasi soliq majburiyatlarining to'liq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashdan iborat ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning ishlarida soliq nazorati soliq siyosatining samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida baholanadi [1].

Shuningdek, M. Olson, A. Smit va F. Shnayder tadqiqotlarida soliq nazorati hamda soliq to'lovchilarning xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratilgan. Ularning fikricha, samarali soliq nazorati soliqdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

MDH davlatlari olimlaridan A.G. Gryaznova, L.I. Goncharenko, I.A. Mayburov va T.F. Yutkina ishlarida soliq nazoratining nazariy-metodologik asoslari, uning shakl va usullari, shuningdek, soliq tekshiruvlarini tashkil etish masalalari chuqur yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda soliq nazorati davlat budjeti daromadlarini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri sifatida qoraladi [3].

O'zbekistonlik olimlardan Q. Abdurahmonov, A. Vahobov, Sh. Mustafokulov, B. Toshmatov va boshqalarning ilmiy ishlarida milliy soliq tizimida soliq nazoratini takomillashtirish, soliq ma'murchiligini kuchaytirish hamda soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarning institutsional asoslari tahlil qilingan. Ayniqsa, ular soliq nazoratini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish hamda riskka asoslangan yondashuvlarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratganlar [4].

S.M. Olennikovning fikricha, soliqdan bo'yin tovlash va soliqlarni optimallashtirish soliq to'lovchining rejalashtirilgan xatti-harakatlari hisoblanadi [5].

A. Makoveskiy va Ye.A. Zareskaya kabi olimlar soliq yukini optimallashtirish tushunchasiga ham ta'rif berib o'tadilar. Ularning ta'kidlashicha, soliqlarni optimallashtirish — bu soliq to'lovchining maqsadli va qonuniy harakatlari, jumladan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha imtiyozlardan to'liq foydalanish, soliq imtiyozlari hamda boshqa qonuniy mexanizmlar orqali soliq majburiyatlari miqdorini kamaytirish jarayonidir. Boshqacha aytganda, bu soliq va jinoyat qonunchiligi normalarini buzmaganda, qonuniy asosda soliq to'lovlarini minimal darajaga tushirishga qaratilgan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tashkil etishdir [6].

Rossiyalik olim L. Aleksandrova tadqiqotlari natijasida soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarmaslik holatlarining keng tarqalganligi hamda soliq huquqbuzarliklarini aniqlashdagi murakkabliklar ularni fosh etish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati tahlili soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash boshqa turdagi huquqbuzarliklarga nisbatan murakkabroq ekanini ko'rsatadi. Shu sababli, soliq huquqbuzarliklarini aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [7].

A.R. Abdullinaning fikricha, soliq majburiyatlarini bajarmaslik holatlarini aniqlash jarayonida buxgalteriya hujjatlarini tahlil qilishdagi murakkabliklar, yangi tashkil etilib tez faoliyatini tugatadigan korxonalarni monitoring qilish mexanizmlarining etarli darajada rivojlanmaganligi, fuqarolik va iqtisodiy-huquqiy hujjatlarni o'zaro integratsiyalash asosida tahlil qilishning qiyinligi hamda ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjudligi bu yo'nalishdagi ishlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda [8].

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, soliq nazorati bo'yicha nazariy qarashlar etarlicha shakllangan bo'lsa-da, soliq to'lovchilar faoliyatini baholashda zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan nazorat mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligini kompleks o'rganish, shuningdek, milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda ilmiy xulosalar ishlab chiqish masalalari hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yashiriniqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyatini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va empirik usullar uyg'unligiga asoslandi.



Yashirin iqtisodiyot hamda soliq nazorati jarayonlari o'zaro bog'liq iqtisodiy institutlar tizimi sifatida ko'rib chiqildi. Raqamli transformatsiyaning davlat boshqaruvi, moliyaviy nazorat va bozor munosabatlariga ta'siri tizimli tahlil asosida o'rganildi.

Raqamli texnologiyalarni faol joriy etgan davlatlar, jumladan Singapur, Estoniya, Koreya Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi tajribasi o'zaro taqqoslandi. Qiyosiy tahlil orqali raqamlashtirish darajasi va yashiriniqtisodiyot ulushi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida raqamli texnologiyalarni joriy etgan davlatlarda yashiriniqtisodiyot ulushining dinamikasi qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari raqamli transformatsiya darajasi bilan yashirin aylanma o'rtasida teskari proporsional bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

1. Soliq ma'muriyatchiligi samaradorligi tahlili. Rossiya Federatsiyasining QQS nazoratiga mo'ljallangan ASK NDS-2 tizimi tahlili shuni ko'rsatdiki, tizim joriy etilgandan so'ng QQS bo'yicha "soliq tafovuti" (tax gap) sezilarli darajada kamaygan. Jumladan, 2016-yilda QQS bo'yicha to'lanmagan soliqlar ulushi 8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 0,4 foizgacha tushgan. Ushbu natijaga sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanish hamda inson omilini minimallashtirish orqali erishilgan.

2. To'lov tizimi va pul aylanmasi tahlili. Xitoy tajribasida naqd pulsiz hisob-kitoblar (Alipay, WeChat Pay) ko'lamining kengayishi chakana savdodagi yashirin aylanmani qisqartirishning muhim omiliga aylangan. Tahlillarga ko'ra, Xitoyda mobil to'lovlar hajmining yiliga o'rtacha 12–15 foizga o'sishi natijasida kichik va o'rta biznes subyektlarining 85 foizdan ortig'i raqamli monitoring tizimiga qamrab olingan. Bu esa davlat budjetiga tushumlarni ma'muriy bosimni kuchaytirmasdan, "raqamli iz" mexanizmi orqali 18 foizga oshirish imkonini bergan.

3. Tovar aylanmasining raqamli nazorati. Qozog'istonda "Virtual ombor" tizimi joriy etilishi natijasida tovarlarning bojxonadan o'tishi va realizatsiyasi o'rtasidagi nomutanosibliklar aniqlangan. Tizim joriy etilgan birinchi yildayoq tovarlarning norasmiy importi 22 foizga qisqargan. Tovarlarini markirovka qilish orqali yashirin aylanmadagi mahsulotlarning bozorga kirishi texnik jihatdan cheklangan.

Raqamli texnologiyalarga investitsiyalar kiritish orqali yashiriniqtisodiyot ulushini qisqartirishda samarali natijalarga erishgan davlatlar sifatida Singapur, Estoniya hamda Koreya Respublikasi, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari o'rtasida keng qamrovli integratsiyani yo'lga qo'ygan Rossiya Federatsiyasi tajribalari qiyosiy tahlil asosida tanlab olindi. Mazkur mamlakatlarda yashiriniqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan o'ziga xos yondashuvlar qo'llanilgani aniqlandi.

Singapur tajribasi. Singapur hududi 728 kv.km bo'lgan va 5,5 million aholiga ega kichik davlatdir. Aholi jon boshiga YaIM hajmi xarid qobiliyati pariteti bo'yicha 101 ming AQSH dollarini tashkil etadi. Hukumat tomonidan globallashuv sharoitida yashiriniqtisodiyot ulushini kamaytirish maqsadida raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, davlat organlari faoliyatidagi byurokratik to'siqlarni qisqartirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Natijada Singapur raqamli transformatsiya bo'yicha etakchi davlatlardan biriga aylangan.

Ma'lumot o'rnida, elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha 2022-yilgi E-Government Development Index reytingida Singapur 12-o'rinni egallagan.

Estoniya tajribasi. Estoniya yuqori darajada raqamlashtirilgan kichik iqtisodiyotga ega davlatdir. Milliy iqtisodiyotni raqamli transformatsiya qilish 1997-yilda davlat sektorini raqamlashtirishga yo'naltirilgan "E-Estonia" tashabbusining e'lon qilinishi bilan boshlangan. 2022-yilgi Digital Economy and Society Index ma'lumotlariga ko'ra, Estoniya Yevropa mamlakatlari ichida davlat organlarini raqamlashtirish bo'yicha 2-o'rinni, milliy iqtisodiyotni raqamli transformatsiya qilish bo'yicha 7-o'rinni egallagan.

Estoniyada raqamlashtirish islohotlari sohalar kesimida amalga oshirilib, ularning ijrosi hukumat darajasida nazorat qilinadi. Davlat sektori raqamlashtirishning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Bugungi kunda elektron hukumat portali orqali elektron fuqarolikni rasmiylashtirish, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish hamda aholiga ko'rsatiladigan davlat xizmatlarining aksariyati to'liq raqamlashtirilgan. Bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va shaffoflikni oshirish imkonini bergan.

1997-yildan buyon Estoniya hukumati davlat budjetining 1–3 foizini raqamli infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirib kelmoqda. Mablag'lar asosan davlat boshqaruvi va biznes jarayonlarini raqamlashtirishga sarflangan.

2014-yilda ishga tushirilgan "E-residency" dasturi xorijiy investorlar uchun Estoniyada masofadan turib biznes ro'yxatdan o'tkazish imkonini yaratdi. Dastur banklar va davlat organlari bilan integratsiyalashgan bo'lib, investorlar elektron shaklda hisobot topshirish imkoniyatiga ega. Hozirgi kunda ushbu dastur orqali 130 dan ortiq mamlakatdan 25 mingdan ziyod tadbirkorlik subyekti ro'yxatdan o'tgan.

Shuningdek, aholini raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatish maqsadida maxsus davlat dasturlari amalga oshirilgan. Fuqarolar yosh guruhlariga qarab ta'lim muassasalari va maxsus markazlarda o'qitilgan.



Umuman olganda, Estoniya raqamli transformatsiyani davlat sektorini to'liq raqamlashtirishdan boshlash orqali mustahkam institutsional asos yaratdi, axborot infratuzilmasini shakllantirdi va yashiriniqtisodiyot ulushini qisqartirishga erishdi.

Koreya Respublikasi tajribasi.

Koreya Respublikasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivoji bo'yicha etakchi davlatlardan biri hisoblanadi. 2022-yilgi GovTech Maturity Index reytingiga ko'ra, Koreya 198 davlat orasida birinchi o'rinni egallagan.

Mamlakatda milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilgan:

1-bosqichda axborot infratuzilmasi barpo etilib, keng polosali internet tarmoqlari kengaytirildi hamda mahalliy tadbirkorlarga imtiyozlar berildi.

2-bosqichda davlat boshqaruvi organlari faoliyati raqamlashtirildi va har yili budjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari modernizatsiya qilindi.

3-bosqichda davlat xizmatlari va biznes jarayonlari to'liq raqamlashtirildi. Jumladan, ro'yxatdan o'tish, soliqlarni to'lash, shartnomalar tuzish va moliyaviy operatsiyalar elektron shaklga o'tkazildi. Mahsulotlarni identifikatsiya qilish tizimi joriy etilib, ishlab chiqarish zanjiri shaffofligi ta'minlandi.

4-bosqichda esa milliy iqtisodiyot subyektlari o'rtasida real vaqt rejimida axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi. Turli davlat organlari va iqtisodiy sektorlar o'rtasida integratsiyalashgan ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Koreya Respublikasi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha kompleks strategiyalar ishlab chiqib, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, elektron to'lov tizimlarini kengaytirish hamda innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratmoqda.



1-rasm. Koreya Respublikasi raqamli iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari

Rossiya tajribasining o'ziga xos jihati shundaki, unda nazorat jarayoni alohida soliq to'lovchilar faoliyatini tekshirishdan ko'ra, ma'lumotlarni markazlashgan holda yig'ish va tahlil qilish asosida yo'lga qo'yilgan.

1. ASK NDS-2 (ACK НДС-2) tizimi — QQS nazorati. Rossiya Federatsiyasi qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha soliq tafovutlarini (tax gap) aniqlash maqsadida ASK NDS-2 axborot tizimini joriy etgan. Mazkur tizim sun'iy intellekt algoritmlari yordamida har bir elektron faktura va hisob-kitobni yagona zanjir asosida bog'laydi. Agar zanjirning biror bosqichida soliq majburiyati bajarilmagan bo'lsa, tizim buni avtomatik tarzda aniqlaydi. Natijada QQS bo'yicha soliq majburiyatlarini bajarmaslik darajasi 1 foizdan past ko'rsatkichgacha qisqargan bo'lib, bu xalqaro amaliyotda yuqori samaradorlik namunasi sifatida baholanadi.

2. O'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun mobil platforma. Norasmiy bandlikni legallashtirish maqsadida "Moy nalog" ("Mening solig'im") mobil ilovasi ishlab chiqilgan. Jismoniy shaxslar ushbu ilova orqali soddalashtirilgan tartibda ro'yxatdan o'tib, 4 yoki 6 foiz stavkada soliq to'laydi. Hisobotlar avtomatik shakllantiriladi va ortiqcha ma'muriy jarayonlar talab etilmaydi. Qisqa muddat ichida 10 milliondan ortiq fuqaro rasmiy ro'yxatdan o'tgan. Bu mexanizm norasmiy mehnat bozorini qisqartirishning samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

3. Milliy markirovka tizimi — "Chestniy ZNAK". Tovar aylanmasini to'liq raqamli kuzatish (track and trace) tizimi joriy etilgan. Har bir mahsulot (poyabzal, dori vositalari, sut mahsulotlari va boshqalar) maxsus Data Matrix kodi bilan markirovka qilinadi. Bu mahsulotning ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan harakatini kuzatish imkonini beradi. Natijada noqonuniy ishlab chiqarilgan yoki bojxona tartib-taomillaridan chetlab o'tgan mahsulotlarning bozorga kirishi sezilarli darajada cheklanadi.

4. Onlayn kassa apparatlari tizimi. Chakana savdo nuqtalarida "bulutli" serverlarga ulangan onlayn nazorat-kassa texnikalari (KKT) joriy etilgan. Har bir chek real vaqt rejimida Federal soliq xizmati axborot tizimiga uzatiladi. Bu mamlakat bo'yicha savdo aylanmasini tezkor monitoring qilish va tahlil etish imkonini yaratadi.

Rossiya Federatsiyasida iqtisodiyotni raqamlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Dastlab internet infratuzilmasi kengaytirilib, uning sifati va tezligi oshirilgan. Keyingi bosqichda raqamli jamiyat elementlari shakllantirilib, raqamli texnologiyalar biznes jarayonlariga joriy etilgan. So'nggi bosqichda innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish maqsadida davlat grantlari hamda "Raqamli iqtisodiyot" dasturlari qabul qilingan.

Shuningdek, strategik ahamiyatga ega yirik tarmoq korxonalari faoliyatida ishlab chiqarish hajmi, realizatsiya jarayoni va mahsulotlarning iste'molchigacha bo'lgan harakatini kuzatish imkonini beruvchi integratsiyalashgan



tizimlar yaratilgan. Ushbu tizimlar, asosan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi operatsiyalarni monitoring qilishga qaratilgan.

Ma'lumot o'rnida, elektron hisobvara-q-faktura tizimi O'zbekiston Respublikasida ham joriy etilgan bo'lib, hozirgi kunda amaliyotda faol qo'llanilmoqda.

Bundan tashqari, raqamli platformalarni yaratish va rivojlantirish bo'yicha tizimli islohotlar olib borilmoqda. Mutaxassislar fikriga ko'ra, kelgusida raqamli platformalar iqtisodiy jarayonlarda muhim institutsional o'rin egallashi kutilmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, Rossiya Federatsiyasida iqtisodiy faoliyatni yashirin tarzda amalga oshirish bilan bog'liq huquqbuzarliklar amaldagi qonunchilik asosida javobgarlikka sabab bo'ladi va belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

1-jadval. Rossiya Federatsiyasida yashiriniqtisodiyotga qarshi kurashish bo'yicha davlat tashkilotlari o'rtasidagi integratsiya

T/R	Mas'ul tashkilot nomi	Mas'ul tashkilot vazifalari
1.	Ichki ishlar vazirligi	Asosiy ijro organi
2.	Maxsus xizmatlar	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish yo'nalishi
3.	Federal bojxona xizmati	Yashirintashqi iqtisodiy faoliyati doirasida bojxona to'lovlaridan bo'yin tovlash yo'nalishi
4.	Markaziy bank	O'z mijozlarining tranzaksiyalari bo'yicha (<i>shuningdek, bank tizimida shubhali operatsiyalarni aniqlash</i>)
5.	Federal soliq xizmati	Soliq to'lovchilar hamda ularning daromadlari bo'yicha
6.	Pensiya jamg'armasi	Haqiqatda faoliyat yuritib daromadga ega fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar
7.	Bandlik va mehnat vazirligi	Aholining real ish bilan band qatlami hamda ishsizlar to'g'risidagi ma'lumotlar
8.	Federal moliyaviy monitoring xizmati	Yashiriniqtisodiyot hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish bo'yicha yagona koordinator
9.	Federal statistika xizmati	Mavjud ma'lumotlar

Shuningdek, iqtisodiy huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi tizimidagi Korrupsiyaga qarshi kurash va iqtisodiy xavfsizlik bosh boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan. Mazkur boshqarma huquqbuzarliklarning turidan kelib chiqib tegishli choralarni ko'radi yoki vakolatli organlarni xabardor qiladi (1-jadval).

Yuqorida qayd etilgan tashkilotlar o'rtasida yagona axborot almashinuvi asosida integratsiya yo'lga qo'yilgan. Idoralarda mavjud ma'lumotlar inson omilisiz, real vaqt rejimida yagona integratsiyalashgan ma'lumotlar bazasida qayta ishlanadi. Tizim tomonidan yashirinfaoliyat alomatlari aniqlangan taqdirda, iqtisodiy huquqbuzarliklar klassifikatsiyasiga muvofiq ravishda tegishli tashkilotlarga avtomatlashtirilgan tartibda ma'lumot yuboriladi va zarur choralar ko'riladi.

Xulosa qilib aytganda, yashiriniqtisodiyotga qarshi kurashning samarali mexanizmlarini amaliyotga joriy etgan davlatlar sifatida Singapur, Estoniya va Koreya Respublikasi raqamli texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish orqali ajralib turadi. Rossiya Federatsiyasi esa milliy iqtisodiyotni raqamli transformatsiya qilish hamda nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali ijobiy natijalarga erishgan.

Birinchi guruh davlatlari kompleks raqamli transformatsiya orqali nafaqat yashiriniqtisodiyot ulushini qisqartirishga, balki makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishiga, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga hamda byurokratik to'siqlarning sezilarli darajada kamayishiga erishgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotida yashirinaylanmalarni raqamlashtirish orqali qisqartirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Ma'lumotlar integratsiyasi (Big Data). Soliq organlari axborot bazalarini bank tizimi, bojxona organlari hamda elektr energiyasi ta'minoti korxonalari ma'lumotlari bilan integratsiya qilish orqali ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy oqimlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni avtomatik aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bu yashirin ishlab chiqarish va norasmiy aylanmalarni erta bosqichda aniqlashga xizmat qiladi.

2. E-soliq servislarga to'liq o'tish. Kichik biznes subyektlari uchun ortiqcha hisobotlarni bosqichma-bosqich qisqartirib, soliqlarni bank tranzaksiyalari asosida avtomatik hisoblash tizimini joriy etish lozim. Bunda inson omili minimallashtirilib, hisob-kitoblarning shaffofligi va aniqligi ta'minlanadi.



3. “Virtual ombor” tizimini joriy etish. Tovarlarni chegaradan kirgan paytdan boshlab yakuniy iste’molchigacha bo’lgan harakatini yagona raqamli platforma orqali kuzatish kontrabanda va norasmiy savdoni qisqartirishga xizmat qiladi. Mahsulotlarni markirovka qilish hamda elektron hisobvara-q-faktura tizimi bilan integratsiya qilish orqali tovar aylanmasining to’liq nazorati ta’minlanadi.

4. Raqamli valyuta (CBDC) — “Raqamli so’m”. Markaziy bank tomonidan emissiya qilinadigan markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC)ni bosqichma-bosqich joriy etish orqali budjet mablag’lari va subsidiyalarni maqsadli yo’naltirish mumkin. “Raqamli so’m” shaklida ajratilgan mablag’larning harakati kuzatiladi va ularning maqsadsiz naqdlashtirilishi imkoniyati sezilarli darajada cheklanadi.

5. Raqamli rag’bat (Digital Rating) tizimi. Soliq majburiyatlarini o’z vaqtida va to’liq bajarayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun avtomatlashtirilgan reyting tizimini joriy etish taklif etiladi. Yuqori reytingga ega subyektlarga imtiyozli kreditlar, davlat xaridlari va boshqa qo’llab-quvvatlash choralari soddalashtirilgan tartibda taqdim etish mumkin. Bu halol faoliyat yuritishni iqtisodiy jihatdan yanada rag’batlantiradi.

Mazkur takliflarni kompleks ravishda amalga oshirish milliy iqtisodiyotda shaffoflikni oshirish, yashirinaylanmalarni qisqartirish hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Musgrave, R.A., Musgrave, P.B. Public Finance in Theory and Practice. — New York: McGraw-Hill, 1989.
2. Stiglitz, J.E. Economics of the Public Sector. — New York: W.W. Norton & Company, 2000.
3. Samuelson, P.A., Nordhaus, W.D. Economics. — New York: McGraw-Hill Education, 2010.
4. Schneider, F., Enste, D.H. The Shadow Economy: An International Survey. — Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
5. Ismoilov, B.S. Soliq to’lovchilar faoliyatini nazorat qilishda kontragentlarni tekshirish amaliyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent, 2024. — 11 b.
6. Майбуров, И.А. Налоги и налогообложение: учебник. — М.: Юрайт, 2020.
7. Гончаренко, Л.И. Налоговый контроль: теория и практика. — М.: Финансы и статистика, 2018.
8. Юткина, Т.Ф. Налоги и налогообложение. — М.: ИНФРА-М, 2019.
9. Vaxabov, A.V. Soliqlar va soliqqa tortish. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019.
10. Abdurahmonov, Q.X. Davlat moliyasi va soliq siyosati. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
11. O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. — Toshkent: G’afur G’ulom nashriyot uyi, 2020. — 640 b.
12. Оленников, С.М. Квалификация уклонения от уплаты налогов по объективным признакам состава преступления // Юридическая ответственность и ответственность юристы. — 2017. — № 4. — С. 37–42.
13. Маковеский, С.А., Зареская, Е.А. Уклонение от уплаты налогов: особенности преступления и наказания // Вестник института экономических исследований. — 2017. — № 3(7). — С. 156.
14. Александрова, Л.И. Основные особенности и проблем выявления уклонений от уплаты налогов // Актуальные проблемы правового регулирования. — 2017. — С. 2.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>